



**BUXORO TEATRIDA TOJIK DRAMATURGIYASI NAMUNALARINING  
SAHNAVIY TALQINI: “TO‘Y” SPEKTAKLI MISOLIDA**

**G‘aybulloyev Baxtishod**

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
San‘atshunoslik instituti “Teatr va xoreografiya” bo‘limi  
kichik ilmiy xodimi.*

**Annotatsiya:** *Maqolada tojik dramaturgi S. G‘anining “To‘y” musiqali komediyasining Buxoro teatri sahnasidagi talqini hamda uning tojik teatri ijrosi bilan solishtirilgan holda o‘rganilishi bayon etiladi. Tadqiqotda spektaklning rejissyorlik yechimlari, aktyorlik ijro si va milliy komediya an‘analarining sahnaviy ifodasi tahlil qilinib, ikki teatr o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikning bugungi kunga qadar davom etib kelayotganligi ta’kidlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Buxoro teatri, tojik dramaturgiyasi, sahnaviy talqin, Samad G‘ani, “To‘y” spektakli, ijodiy hamkorlik, rejissyorlik yechimlari, aktyorlik mahorati, komediya janri, teatrlararo madaniy almashinuv.*

**Abstract:** *This article examines the stage interpretation of the musical comedy “Toy” by Tajik playwright S. Gani at the Bukhara Theatre and compares it with its production in Tajikistan. The study analyzes directorial approaches, acting performance, and the representation of national comedic traditions in both versions of the play. The findings highlight that the work served as a significant element in the creative collaboration between the two theatres, and that this cultural exchange continues to the present day.*

**Keywords:** *Bukhara Theatre, Tajik dramaturgy, stage interpretation, Samad Gani, “Toy” performance, creative collaboration, directorial approach, acting mastery, comedy genre, intertheatrical cultural exchange.*

O‘zbek va tojik teatrlarining tarixiy yaqinligi hamda ijodiy hamkorligi ikki xalq madaniyatida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, tojik dramaturgiyasi namunalarining o‘zbek sahnasida talqin qilinishi teatrlararo badiiy almashinuv jarayonining yorqin ko‘rinis hidir. Buxoro teatri ijodida Samad G‘anining “To‘y” musiqali komediyasining sahnalashtirilishi ushbu jarayonning ahamiyatli bosqichlaridan biri bo‘lib, unda ijrochilik mahorati, rejissyorlik izlanishlari va milliy komediya an‘analari uyg‘unligi ko‘zga tashlanadi.

Tojik dramaturgi Samad G‘anining “To‘y” musiqali komediyasi Buxoro va Tojik teatrlarining ko‘p yillik ijodiy aloqalari tarixida alohida o‘rin tutadi. Mazkur asar ikki teatr san‘atkorlari tomonidan turli davrlarda bir necha bor sahnaga olib chiqilib, har galgi talqinida o‘ziga xos badiiy yechimlar bilan boyitilgan. Xususan, 1961 -yilning 7-8-dekabr kunlari Buxoro teatri spektaklning o‘z variantini tomoshabinlarga taqdim etgan bo‘lsa, shu yilning iyun oyida Tojikiston teatri uni o‘z ijro uslubi asosida namoyish etgan. Bunday o‘zaro ijodiy almashinuv jarayoni ikki teatr jamoasiga bir-birining sahnaviy tajribasini





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘rganish, badiiy izlanishlarini kengaytirish hamda professional mahoratni yanada rivojlantirish imkonini yaratdi.

Buxoro teatrida sahnalashtirilgan uch pardali musiqali komediya – S.G‘aning “To‘y” asari tomoshabinlar e‘tiborini mazmuniy yondashuvi va professionallik bilan bajarilgan ijrosi orqali o‘ziga jalb qilgan. Spektakl inson xarakteridagi turli ijtimoiy ziddiyatlar, oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan muammolar hamda jamiyatdagi axloqiy-etik qadriyatlarga bo‘lgan beparvolik masalalarini yumor va satira vositasida ochib beradi.

Asarning markazida bir tashkilot rahbari Xolbo‘tayevev va uning oilasi bilan bog‘liq ziddiyatlar turadi. Xolbo‘tayevevning rafiqasi Saltanat obrazida ishlamaydigan, zamonaviy liboslarga qiziqadigan, shu bilan birga oilaviy mablag‘larni maqsadsiz sarflaydigan ayol tipi aks etadi. Uning beparvo tarbiyasi va mas‘uliyatsiz munosabati natijasida o‘g‘li Sulton sustkash, mehnatdan chekinadigan va turli salbiy odatlarga tez beriladigan yosh yigit sifatida tasvirlanadi.

Aktor A.Mahmudov tomonidan ijro etilgan Sulton obrazi o‘ziga xos sahnaviy mahorat bilan talqin etilgan. Ayniqsa, restoran sahnasida qahramonning ichkilikka mukkasidan ketishi, hatto kiyimlarini garovga qo‘yib, uyga nomaqbul holatda qaytishi tomoshabinga kuchli dramatik va satirik ta‘sir uyg‘otadi. Shunga qaramay, uning onasi Saltanat Sultonning bu kabi xatolarini oqlashga urinadi hamda garovga qo‘yilgan kiyimlarini qaytarib olish uchun pul yuborishi orqali uning mas‘uliyatsizligini yana-da kuchaytiradi.

Spektaklning sahnadagi muvaffaqiyati, avvalo, aktyorlarning professional tajribasi va badiiy ijro mahorati bilan bog‘liq. Har bir obraz individual xarakterga ega bo‘lib, ularning o‘zaro to‘qnashuvlari komediya janrining talablari asosida jadal va ta‘sirchan tarzda hal etilgan.

Hoshimlabbay (H.Naimov ijrosida) hiylakor, o‘z manfaatini ko‘zlab ish tutuvchi shaxs sifatida sahnada gavdalanadi. Xodipiyon (A.Fayziyev) esa komediyaning yumoristik yo‘nalishini mustahkamlovchi, voqeaga g‘oyaviy va kulgili rang beruvchi obrazdir. Latofat (N.Ne‘matova) murakkab ichki kechinmalarga ega bo‘lib, muhabbat tuyg‘usi va hayotiy manfaatlar o‘rtasida ikkilanayotgan ayol xarakterini aks ettiradi. Zebi (Z.Rahmonova) esa adolat va sof sevgi yo‘lida qat‘iyat bilan harakat qiladigan qiz sifa tida talqin etiladi. Rustam (R.Ergashev) uning sevgan yori bo‘lib, qahramonning his-tuyg‘ulari, iztiroblari va ichki olamini sahnada yorqin ifodalaydi. Fotima xola (A.Olimova) esa an‘anaviy qarashlar va jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tartiblar bilan yuzma-yuz keluvchi obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Spektaklning mazmuniy yo‘nalishi va sahnaviy talqinini yaratishda rejissyor A. Akobirov hamda asar tarjimoni muhim ijodiy mas‘uliyat bilan yondashganlar. Xususan, sahna kompozitsiyasiga kiritilgan yumoristik unsurlar, musiqali dramaturgiya va dinamik sahna harakatlari tomoshabinlarning e‘tiborini jalb etish va spektaklning badiiy ta‘sirchanligini kuchaytirishda alohida ahamiyat kasb etgan.

“Buxoro viloyati musiqali drama teatri ijodiy jamoasi S. G‘aning “To‘y” spektaklini yanada takomillashtirib, uni zamonaviy tomoshabin didiga mos, har jihatdan tarbiyaviy





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ahamiyatga ega bo'lgan yuksak badiiy asarga aylantirish yo'lida samarali ijodiy izlanishlar olib bormoqda. Teatr jamoasining professionalligi, sahnaviy tajribasi va badiiy izlanuvchanligi ushbu maqsadning muvaffaqiyatli ro'yobga chiqishiga zamin yaratadi. Mazkur jamoaning ijodiy salohiyati va mahorati bu yo'ldagi natijalarning yanada porloq bo'lishiga ishonch uyg'otadi"<sup>46</sup>

“To'y” spektakli Buxoro teatrining ijodiy taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib, u teatr jamoasiga klassik va milliy dramaturgiya an'analarini yangicha talqin etish hamda ijtimoiy satira unsurlarini sahnada samarali qo'llash imkonini berdi. Ushbu spektaklning muvaffaqiyati teatrning ijodiy salohiyatini yanada mustahkamladi, komediya janrining sahnaviy imkoniyatlarini kengaytirdi. Shuningdek, asarning sahnadagi ommabopligi keyingi yillarda ijtimoiy-komediya yo'nalishidagi asarlarga bo'lgan qiziqishning ortishiga ham turtki bo'ldi.

S.G'anining “To'y” musiqali komediyasi Tojikiston teatri sahnasida ham buxorolik rejissyor va aktyor A.Burhonov tomonidan sahnalashtirilgan. Asar Buxoro teatrida bir necha bor qo'yilgan bo'lishiga qaramay, uning Tojikiston sahnasidagi talqini o'ziga xos badiiy yechimlari bilan alohida e'tiborni tortgan. Tojik san'atkorlari komediyani o'z milliy ijro uslubiga mos ravishda boyitib, undagi yumor va hayotiylikni yanada yorqin ifodalashga erishgan. “Tojik san'atkorlari jozibali kulguli hamda quvnoqlik bilan to'lib-toshgan bu komediyani o'zlariga xos iste'dod, o'zlariga xos koloritda namoyish etdilar"<sup>47</sup>. Tojik teatri tomonidan sahnalashtirilgan talqinda qahramonlarning ruhiy dunyosi, xarakter murakkabliklari va ijtimoiy mavqei yanada chuqur ochib berilgan bo'lib, rejissyor va dramaturg fikrlarining tomoshabinga to'laqonli yetib borishi ta'minlangan. Spektaklda Zebi rolini M.Shamsidinova, Fotima xolani S.Baqoyeva, Latofatni S.Jo'rayeva, Rustamni Sh.Jo'rayev, Xodipiyonni M.Xalilov, Hoshimlabbayni A.Qosimov, Sulton obrazini M.Hojiqulov, Saltanatni esa T.G'afforova ijro etib, har biri qahramon xarakterini hayotiy va ta'sirchan talqin qilishga muvaffaq bo'lgan.

Spektaklning markaziy personajlaridan Xolbo'tayev obrazi esa aktyor M. Tohiriy ijrosida o'zining oilaga bo'lgan talabchanligi va yangicha fikrlash tarzini yorqin ifoda etadi. Uning harakatlari, mimikasi va ichki kechinmalarni ifodalovchi sahnaviy mahorati tomoshabinni ishontirishda muhim rol o'ynagan.

Umuman olganda, Tojikiston teatrida sahnalashtirilgan “To'y” spektakli ikki xalq teatr san'atining o'zaro yaqinlashuviga, dramaturgiya maktablaridagi ijodiy tajriba almashuvining kuchayishiga xizmat qilgan. Bu jarayon nafaqat san'atkorlar mahoratining oshishiga, balki o'zbek va tojik teatr an'analari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning mustahkamlanishiga ham zamin yaratdi.

<sup>46</sup> Xalilov M, Xo'jayev S, Shukurov A. “To'y” // “Buxoro haqiqati. – 1961 y. № 158 (6855)

<sup>47</sup> Murodjon Xalil. Iste'dod va haqqoniy kulgi // Buxoro haqiqati. – 1961 y. 20 iyun № 1842.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



S.G‘aning “To‘y” musiqali komediyasi Buxoro va Tojik teatrlarining o‘zaro ijodiy aloqalarida muhim o‘rin tutuvchi badiiy hodisa sifatida qimmatli tajriba maktabini yaratdi. Asarning har ikki teatr sahnasida turlicha talqin etilishi teatr san’atining milliy xususiyatlari, ijro uslublari va rejissyorlik qarashlarining qanchalik boy va rang-barang ekanini ko‘rsatadi. Buxoro teatrining sahnalashtirish tajribasida asarning ijtimoiy-satirik mazmuni, komedik ziddiyatlar va obrazlar tizimi o‘ziga xos badiiy yechimlar bilan ochib berilgan bo‘lsa, Tojikiston teatri talqinida qahramonlarning ruhiy-psixologik holati chuqurroq yoritilgan.

Har ikki teatr tomonidan yaratilgan talqinlarning o‘zaro solishtirilishi nafaqat ijrochilik mahoratini, balki o‘zbek va tojik teatr maktablarining umumiy estetik tamoyillarini ham yoritib beradi. Ushbu spektaklning turli yillarda qayta sahnalashtirilishi teatrlararo badiiy almashinuvning davomiyligini, ijodiy jarayonlarning uzviy ravishda boyib borayotganini ko‘rsatadi.

“To‘y” spektaklining ikki teatr tajribasida tutgan o‘rni teatrshunoslik nuqtayi nazaridan shuni anglatadiki, u nafaqat dramaturgik asarning badiiy qudratini, balki ikki xalqning madaniy yaqinligini, sahna san’atining bir-biriga ta’sirchan tarzda singishini ham namoyon qiladi. Mazkur ijodiy hamkorlik o‘z navbatida kelajakda ham teatrlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvning kuchayishiga xizmat qilishi shubhasiz bo‘lib, ushbu an’ana bugungi kunga qadar izchil davom etib kelmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalilov M, Xo‘jayev S, Shukurov A. “To‘y” // “Buxoro haqiqati . – 1961-yil. № 1840.
2. Murodjon Xalil. Iste’dod va haqqoniy kulgi // Buxoro haqiqati. – 1961-yil. № 1842.

